

**DINAMIK AFAZIYADA KORREKSION
LOGOPEDIK ISH BOSQICHLARI**

O‘tbasarova Umida Mexmanovna

Alfraganus Universiteti oliy ta’lim tashkiloti

Pedagogika va Psixologiya PhD v.b dotsent

Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Alfraganus Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti,

Defekta logiya yo‘nalishi talabasi

Islomova Dilnura Farruh qizi

Alfraganus Universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti,

Defekta logiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Dinamik afaziyada miya yarim sharlarining chap tomonida nutqning motor faoliyatini boshqaruvchi hududlarda zararlanish bo‘ladi. Bu maqolada dinamik afazik bemorlar bilan ishlash va korreksion logopedik ish bosqichlari yoritib berilgan. Ushbu maqola mutaxassislar va bemorlar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Syujet, logoped, dialog, kartochka, bemor, malaka, adabiy, intanatsion, hikoya, exololiya, dinamik, afaziya, predmet, grammatik.

Аннотация: При динамической афазии происходит поражение левого отдела полушарий головного мозга в областях, управляющих двигательной активностью речи. В данной статье освещаются этапы работы с пациентами с динамической афазией и коррекционной логопедической работы.

Эта статья может быть полезна специалистам и пациентам.

Ключевые слова: Сюжет, логопед, диалог, карточка, пациент, квалификация, литературная, интанация, повествование, эксололия, динамик, афазия, предмет, грамматика.

Abstract: With dynamic aphasia, damage to the left hemisphere of the brain occurs in areas that control the motor activity of speech. This article highlights the stages of working with patients with dynamic aphasia and corrective speech therapy work.

This article may be useful for specialists and patients.

Key words: Plot, speech therapist, dialogue, card, patient, qualifications, literary, intanation, narrative, exololia, speaker, aphasia, subject, grammar.

Kirish:

Dinamik afaziyanı o‘girlik darajasiga ko‘ra turlari

- Dinamik afaziyani **og'ir darajasida** bemorning nutqiy faolligi juda past va ko'plab exolaliya bilan birga kuzatiladi.
- **O'rta darajasida-** bemorning nutqi qisqa va ma'no jixatidan bir xil jumlalardan tashkil topadi. Bemorda telegraf ko'rinishidagi (masalan: qizcha ko'cha bor) agrammatizmlar kuzatiladi. Nutqiy faollik juda past bo'lib bemorda dialogik nutq ustunlik qiladi. Bemorda exolaliya bilan birga so'zlashuv va kasbiy nutqda ishlatilgan jumlalar takrorlanadi.
- **Yengil daraja-** bemorning mustaqil nutqi birmuncha shakllangan ammo mantiqiy jixatdan kambag'al. Gapning umumiyligi ko'rinishi ohangsiz va gapning tuzilishida ko'plab xatolar kuzatiladi (masalan: Sabina choynak qo'ydi stol). Exolaliya faqat bemor charchaganida namoyon bo'ladi.

Bemorlarda uch darjasi ham avtomatlashgan nutqni qiyinchiliksiz tiklanadi.

- Qaytalanuvchi nutq

O'g'ir darajadagi bemorlarda qaytalanuvchi nutq exolaliya bilan birga kuzatiladi. Bir so'zni takrorlash va so'zlarni qo'shib tashlash va keying so'zga o'ta olmasdan so'zni bir necha marotaba takrorlash bilan nomoyon bo'ladi. O'rta darajada bemor ko'plab qaytalanuvchi nutqdan foydalanadi, gap qisman ma'no jixatdan kambag'al hamda nutqning prosodik tomoni ifodaliligi va ohangi yo'qolgan. Yengil darajadagi bemorlarda logoped ketidan takrorlanuvchi nutq saqlangan holda charchash vaqtida exolaliyalar bilan kuzatiladi.

- Dialogik nutq

Nutq nuqsonining qo'pol buzilishlari bo'lgan bemorlarning dialogik nutqideyarli yo'q. Ular faqat "ha" yoki "yo'q" so'zlari bilan javob berishga qodir, shuningdek javob sifatida xayajonlanganda ishlatiladigan so'zlar uf, zo'r, ox kabi foydalanadilar. Vaziyatga nisbatan dialogli nutq birmuncha oson namoyon bo'ladi.

Afaziyaning yengilroq darajalarida dialogik saqlangan, ammo ko'plab xatolar bilan namoyon bo'ladi.

- Nomlash

Dinamik afaziyaning qo'pol buzilishlarida bemorlar kundalik predmetlarni rasmlar ichidan topishlari va nomlashlari mumkin. Yengil darajada nutq qo'pol buzilishlarsiz, ammo bemor lug'atida fe'llar sezilarli darajada ustundir. Yengil dinamik afaziyada predmetlarni nomlash saqlanib qoladi.

- Syujetli rasm asosida hikoya tuzish

Dinamik afaziyaning qo'pol buzilishlarida bemorlar syujetli rasmiga qarab iborani tuza olmaydilar. O'rta darajada syujet asosida oddiy iborani tuzish mumkin, ammo nutqni dasturlashda ko'pincha iboraning chuqur tuzilishi darajasida ko'plab xatolarga yo'l qo'yadilar. Yengil dinamik afaziyada bemorlar qiyinchiliksiz hikoya tuza oladilar.

- Nutqni tushunish

Qo'pol buzilishi bo'lган bemorlarda diqqatni yo'qotish,

so'zlarni takrorlashlari tufayli begona nutqni to'liq tushunmaydilar. "bemorni xulqi noaniq": bemor ko'rish doirasidagi predmetlar bilan chalg'iydi. Ba'zida grammatik jihatdan murakkab qurilgan nutqni tushunishlari qiyin. Yengilroq darajada ham grammatik jixatdan bezatilgan nutqni tushunishlari qiyin bo'ladi.

- O'qish

Alohida harflarni oddiy so'zlarni o'qish hatto qo'pol dinamik afaziya bilan og'rigan bemorlar uchun ham mavjud. Yengil holatlarda o'qish saqlanadi, ammo matnning alohida qismlarida "to'xtab qolish", so'zlarni o'tkazib yuborish va butun iboralarni tushurib qoldirish mavjud bo'ladi.

- Yozma nutq

Og'ir buzilishlarda ham yozish va ko'chirish malakasi saqlangan ammo diktant yozishda qiyinchiliklar mavjud. Og'zaki va artikulyatsion praksis hatto qo'pol buzilishi bo'lган bemorlarda ham og'zaki va artikulyatsion praksis deyarli buzilishlarsiz kuzatiladi.

Korreksion ish:

- Syujetli rasm asosida qisqa gap tuzish. (Masalan: ovqat pishdi).
- Syujetli rasm asosida bemor javob berishi uchun yo'naltiruvchi savollar berish.

● Bemorda fe'llarni turlicha tuslanishini yo'naltiruvchi savollar orqali gapda qo'llashga o'rgatish. Bemorga tunganlanmagan fe'l qatnashgan jumlalarni berish orqali jumlanı tugalashni so'rash.

1. Logoped bemorga syujetli rasmlar seriyasiga qarashni va kichik matn tuzishini so'raydi.

2. Matnning mavzusini syujetli rasmning tagiga qo'yishni so'raydi.

3. Bemorga tanish bo'lган so'z va gaplarni o'qish.

4. Adabiy qisqa hikoyalarni o'qish va asosiy mazmunini hikoya qilishga o'rgatish.

5. Bemor bilan dialogik suhbat o'tqizish.

Dialogik savollar:

Sizga bugun qanday muolajalar qilishdi?

Siz nechi kundan beri shifoxonada/ uyda yotibsiz?

Kecha siz nimalar qildingiz?

Sizi ko'rgani bugun kim keldi?

6. Syujetli rasmlar asosida savollarga bemor “ha” yoki “yo’q”deb javob berishi kerak.

7. Yo’naltirigan savollarni kamaytirish bemorga kamroq yordam berish kerak.

8. Gapdagi mantiqiy bog’lashlanishlarni o’rganish (Masalan: Mushtariy yolg’on gapirdi. Kim yolg’on gapirdi? Mushtariy yolg’on gapirdi. Eziza qattiq yeg’ladi. Kim yeg’ladi? Eziza yeg’ladi).

9. Berilgan maqollarning ma’nosini tushunishga o’rgatish. (Masalan: Sabr tagi sariq o’ltin. Shu maqolni ma’nosining so’rash).

10. Mantiqa tog’ri kelmagan gaplarni tushunishga o’rgatish. (Masalan: Sichqon mushukni yeb qo’ydi. Kitob Mushtariyni o’qidi).

11. Bemor o’zining hozirga holatti bo’yicha hikoya tuzib berishini so’rash.

Logopedik ish 3 bosqichdan iborat:

Birinchi bosqich- bemorda o’qish, yozish malakallarini shakillangani sababli bemorni oldiga syujetli rasm hamda shu rasimda ifodalangan gapning mazmuni bosma harflar bilan yozilgan kartochkasi bemorning oldiga qoyiladi. Bemor logoped bilan birgalikda avval syujetli rasmda ifodalangan rasmlarni takrorlaydi. (Masalan: Qischa olmalarni daraxtdan uzyapti). Shunda gaplarni alohida alohida takrorlaydi. Keyin 2ta so’zni birlashtirib aytamiz va murakkablashtiramiz. Song yo’naltiruvchi savollar beramiz. (Masalan: Qizcha nimani uzyapti? Olmani. Kim uzayapti? Qizcha).



QIZCHA, OLMA, UZYAPTI, DARAXT

Ikkinchi bosqich- Bemorga dialogik nutqni tiklash uchun savollar beriladi.

Dialogik savollar:

Sizga bugun qanday muolajalar qilishdi?

Siz nechi kundan beri shifoxonada/ uyda yotibsiz?

Kecha siz nimalar qildiz?

Sizi ko'rgani kim keldi?

Bugun nima ovqat va nimada yedizgiz?

Bemorga tayyor jumlalar o'qish, yozish va og'zaki nutqni rivojlantirish uchun beriladi. Bemor jumlalarni fe'llar bilan tugatishi shart.(Masalan: Mushtariy ro'molini o'rayapti).

Uchinchi bosqich- Bemorga adabiy matnlarni berish orqali nutqning intonatsion tomonni shakllantiriladi. Bemor o'zi o'qigan hikoyani ifodali qilib aytib berishi kerak bo'ladi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytsak bo'ladiki, dinamik afaziya - bu so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishda yoki og'zaki nutqni tushunishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaruvchi miya kasalligi hisoblanar ekan. Ushbu holatni korreksiyalash murakkab jarayon bo'lib, davolanish davri uzoq va ko'p bosqichlardan iborat bo'ladi.

Foydalilanilgan adabyotlar:

1. Афазия и восстановительное обучение: Тексты / Под ред. Л. С. Цветковой, Ж. М. Глозман. М., 1983.
2. Бейн Э. С. Афазия и пути ее преодоления. Л., 1964.
3. Бурлакова М. К. Коррекционно-педагогическая работа при афазии. М., 1991.
4. Визель Т. Г. Как вернуть речь. М., 1998.
5. Визель Т. Г. Нейропсихологическое блиц-обследование: Тесты по исследованию высших психических функций. М., 2005.
6. Винарская Е. Н. Дизартрия. М., 2005, с. 95–104.
7. Винарская Е. Н. Клинические проблемы афазии. М., 1971.
8. Восстановление речевой функции у больных с разными формами афазии: Мет. рек. Ч. 1. М., 1985.
9. Логопедия / Под ред. Л. С. Волковой, С. Н. Шаховской. М., 2003.
10. Svetkova,L.S. vosstanovitelnoye-Afaziya
<obucheniye L.S.Svetkova. - М., 1988.
11. Shoxor-Trotskaya, < SM.K. Korreksionno-pedagogicheskaya rabota pri afazii / M.K. Shoxor-Trotskaya. - М., 2002.
12. Isaeva M. Karimova Z. Afaziya holatining fonematik sathda namoyon bo'lish omillari Great Britain international scientific online conference interdiscipline innovation and scientific research conference 2024, 278-280.